

Yadro tibbiyoti usullari tibbiyotda aniq tashxis qo'yish va samarali davolashda juda muhim

Bugungi kundagi zamonaviy tibbiyotning asosiy yutuqlaridan biri yadro fizikasi yutuqlarining tibbiyotga tadbiiq etilishidir. O'zR FA Yadro fizikasi instituti yadro tibbiyot uchun radioizotoplar ishlab chiqaradi.





Yadro tibbiyoti usullari tibbiyotda aniq tashxis qo'yish va samarali davolashda juda muhim. Ayniqsa, saraton kasalliklarini davolashda bu yo'nalish katta rol o'ynaydi. Bundan tashqari, bu selektiv terapiya, ya'ni yadro tibbiyoti usullari kasallik o'chog'ini davolashda qo'llaniladi.

Onkologik jarayonlarning erta diagnostikasi tibbiyotning dolzarb masalasi va ulkan yutuqlaridan biri hisoblanadi. Erta tashxis organizmning kasalliklardan erta va to'liq xalos bo'lishi uchun zamin yaratadi. Kimyo terapiyasi va bu turdagi dori vositalarini qabul qilishda ular butun organizmga singadi, bu esa nojo'ya ta'sirlarga sabab bo'ladi. Radioterapiyada esa preparat manzilli tarzda faqat kasallikdan zararlangan maydonlarga yo'llanadi. Onkologiya nuqtai nazaridan preparat faqat o'sma hujayralariga ta'sir qiladi va sog'lom hujayralarga zarar yetkazmaydi. Shu tarzda sog'lom hujayralar va, umuman, organizm bu preparatlarning umumiy ta'siridan zarar ko'rmaydi.

Ikkinchidan, yadro tibbiyotining samarasi juda yuqori. Masalan, hozirgi kunda lyutetsiy-177 asosidagi shunday preparat paydo bo'ldiki, ilmiy tadqiqotlar asosidagi maqolalarga tayanadigan bo'lsak, bu preparat ta'sirida ba'zi turdagi o'smalardan sog'ayish ko'rsatkichi 99 foizgacha yetishi mumkin. Boshqa uslublar bilan hozircha bunday natijalarga erishib bo'lmayapti.

So'nggi 8-10 yil davomida samariy-153 oksabifor preparati keng qo'llanila boshlandi. Bu preparat suyaklardagi kuchli og'riqlar qo'zg'atuvchi o'smalar metastaz berganda va boshqa suyak kasalliklarida og'riqsizlantirish va davolash maqsadida ishlatiladi.

1978-yilda bizda ilk bor texnetsiy-99m radionuklid generatori olingandi. Bu eng universal radionuklid bo'lib, har xil xastaliklarning diagnostikasida ishlatiladi. Bugungi kunda dunyo bo'yicha radionuklidlar ishtirokida o'tkaziladigan barcha tashxis muolajalarining 85 foizdan ortig'i aynan texnetsiy-99m yordamida amalga oshiriladi. Texnetsiy-99m radionuklidini olishda ishlatiladigan molibden-99 radionuklidini Yaponiyaga katta miqdorda yetkazib berish bo'yicha "Sumitomo Corporation" va "Chiyoda Technol Corporation"

kompaniyalari bilan muzokaralar o'tkazilmoqda. Bu biz uchun yana bir yangi, yirik eksport bozorini ochish imkonini beradi.